

O`ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORAT SOHASIDAGI MUNOSABATLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

Muxsimov Ulug'bek Temurbek o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada internet tarmog'ini huquqiy tartibga solish, elektron tijorat bilan bog'liq bo'lgan normati-huquqiy hujjatlar turlari va ularning ahamiyati, internet orqali tuzilgan bitimlar va ushbu huquqiy munosabatlarning zaruriy unsurlari o'rganilgan.

Shu bilan birga, ushbu sohada hozirda amaliy faoliyat olib borayotgan tashkilotlar va institutsional tuzilmalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Internet, UNICON, shartnoma, normativ-huquqiy hujjat, raqamli iqtisodiyot, elektron bitimlar, elektron hujjat, xalqaro tashkilot.

Jadal rivojlanish davrida hukumat va prezident axborot-kommunikatsiya sektori va ayniqsa, raqamli iqtisodiyotni, shu jumladan elektron tijoratni rivojlantirishga katta ahamiyat bermoqda.⁷⁴

Internet tarmog'ini qonun yo'li bilan tartibga solish va uning normativ-huquqiy bazasini shakllantirish jarayonlarining tahlili mavjud normativ bazani tizimlashtirish lozimligini ko'rsatadi.

Tadqiqot obyekti bo'lgan internet orqali tuziladigan bitimlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan milliy normativ-huquqiy hujjatlar tahliliga qaraydigan bo'lsak, mazkur normativ hujjatlar sohaviy jihatdan tarqoq ekanligiga va eng asosiysi mazkur munosabatlarning to'liq huquqiy tartibga solinmaganligiga guvoh bo'lamiz.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, internet orqali tuziladigan bitimlarni huquqiy tartibga soluvchi milliy qonunchilik normalari sohasiga ko'ra ikkita katta guruhga bo'linadi:

- elektron tijorat bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar.
- shartnomaviy huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar;

O'zbekiston Respublikasida elektron bitimlar, O'zbekiston Respublikasining «Elektron hujjat aylanishi to'g'risida»gi, «Elektron tijorat to'g'risida»gi, «Elektron raqamli imzo to'g'risida»gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2018 yil 14 maydagi PQ-3724-son qarori, “O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2018 yil 3 iyuldagi PQ-3832-son qarori,

⁷⁴ Mannanova S. (2020). Проблемы развития электронной коммерции в Узбекистане. Архив научных исследований, 1(4). Извлечено от <https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/3866>

“O`zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida” 2018 yil 13 dekabrda PF-5598-son Farmoni, “Raqamli iqtisodiyot va “Elektron hukumat” tizimi infratuzilmalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” 2019 yil 18 maydagi PQ-4321-son qarori, “2017 – 2021-yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma`rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturi to`g`risida” 2020 yil 2 martdagi PF-5953-son Farmoni, “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to`g`risida” 2020 yil 28 apreldagi PQ-4699-son qarori, “Raqamli O`zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to`g`risida” 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-son Farmoni, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Elektron raqamli imzodan foydalanish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish to`g`risida” 2005 yil 26 sentabrdagi 215-son, “Elektron tijorat to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Qonuniga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish haqida” 2015-yil 22-maydagi O`RQ-385-son O`zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to`g`risida” 2015 yil 8 sentabrdagi 259-son, “Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” 2016 yil 2 iyundagi 185-son qarori, va boshqa bir qator qonun va qonunosti hujjatlar kiradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda xo`jalik yurituvchi sub`ektlar, jumladan, kichik biznes va tadbirkorlik vakillari tomonidan o`z faoliyatlari jarayonida elektron to`lovlar va elektron tijorat imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ularning raqobatbardoshligini mustahkamlash va yuqori iqtisodiy natijalarga erishishlarida yetarli huquqiy asos yaratilgan. Biroq, axborot texnologiyalari va tijoratning bugungi kundagi rivojlanish darajasi elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni yanada kengroq va mukammalroq tartibga solishni talab etadi.

“Internetda bitimlarga soliq solish, elektron to`lovlarni amalga oshirish, buyurtma qilingan (haqi to`langan) tovarni yetkazib berishni tartibga solish eng jiddiy muammolardan biri hisoblanadi. Elektron bitimlarni amalga oshirishda qanday soliqlar va boj to`lovlari undirilishi lozimligini, bunda kim O`zbekiston Respublikasining soliq rezidenti hisoblanishini milliy qonunchilikda aniq belgilab qo`yish talab etiladi” – deb ta`kidlaydi I.Rustambekov.⁷⁵

Yuqorida ta`kidlab o`tganimizdek, O`zbekiston Respublikasida elektron bitimlar bir qator qonun va qonunosti hujjatlar bilan tartibga solinadi. O`z navbatida elektron bitim – elektron tijoratda foydalaniladigan elektron hujjatning bir ko`rinishi

⁷⁵ Rustambekov I.R. Internet tarmog`ida fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solish muammolari. Monografiya. – Toshkent: TDYuU, 2020. – 310 b.

yoki bir turi bo`lib xisoblanadi. Shuning uchun birinchi navbatda elektron hujjat o`z nimaligini va uning huquqiy tabiatini aniqlab olmoq zarur. Elektron hujjat, O`zbekiston Respublikasi «Elektron hujjat aylanishi to`g`risida»gi Qonunining 5-moddasiga asosan, elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo`lgan axborot elektron hujjatdir.

Elektron bitim va boshqa har qanday elektron hujjat elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi, o`z navbatida elektron raqamli imzo elektron hujjatning majburiy rekvizitlaridan eng asosiysi hisoblanadi.

Bugungi kunda O`zbekiston Respublikasi doirasida elektron raqamli imzolar bilan bog`liq asosiy muammo – bu elektron raqamli imzoning yagona shakli mavjud emasligidir. Aniqroq qilib aytadigan bo`lsak, hozirgi kunda mamlakatimizda elektron raqamli imzo Soliq qo`mitasi va UNICON.UZ davlat unitar korxonasi tomonidan taqdim qilib kelinmoqda. Qolaversa, O`zbekiston Respublikasining “Elektron raqamli imzo to`g`risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan maxsus vakolatli organda davlat ro`yxatidan o`tgan yuridik shaxslar elektron raqamli imzolarining yopiq va ochiq kalitlarini yaratish huquqiga ega bo`lishlari belgilangan. Mazkur elektron raqamli imzo taqdim qiliuvchi tashkilotlar doirasidagi eng katta muammo – bu elektron raqamli imzolarining o`zaro tan olinmasligi va unifikatsiyalanmaganligidir.

Yuqorida keltirib o`tilgan misollardan ko`rishimiz mumkinki, Internet bozori maxsus qonun hujjatlari qabul qilinishini poylab o`tirmay jadal sur`atlarda rivojlanmoqda va bu sohada bir qator muammolar o`z yechimini kutmoqda. Xususan, Internet tarmog`i orqali bitimlar tuzishda iste`molchilar bilan xizmat ko`rsatuvchilar va sotuvchilarning huquqlarini himoya qilish to`g`risidagi masalani yechish ayniqsa muhimdir.

“Elektron tijorat to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining 11-moddasida elektron tijoratda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishda raqobat to`g`risidagi va iste`molchilarning huquqlarini himoya qilish haqidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etish majburiyati belgilangan bo`lsada, ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlari (O`zbekiston Respublikasining “Raqobat to`g`risida”gi va “Iste`molchilarning huquqlarini himoya qilish to`g`risida”gi qonunlari)da elektron tijoratning o`ziga xos xususiyatlari bilan bog`liq normalar mavjud emas.